

## INGLIZ TILIDA TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM AHAMIYATI

Yalgʻosheva Mohichehra Olimovna  
Chirchiq davlat pedagogika univeriteti  
[mrmohichehra.yalgasheva@gmail.com](mailto:mrmohichehra.yalgasheva@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21916533>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oliy taʼlim muassasalarida xorijiy til , yaʼni ingliz tilining muhim ahamiyatini koʻrsatadi. Ayniqsa xorijiy tilde til koʻnikmalarini rivojlantirishning oson va samarali yollari hamda til kompetensiyalarining chet tilini oʻzlashtirishdagi muhim ahamiyat kasb etishligi keng yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** til kompetensiyalari, oʻqish, yozish, gapirish va eshitish koʻnikmalari, didaktika, pedagogika va psixologiya, individual yondashuv, demokratlashtirilgan taʼlim.

**Abstract:** This article shows the importance of a foreign language, namely English, in higher education institutions. In particular, easy and effective ways to develop language skills in a foreign language and the important role of language competencies in mastering a foreign language are widely covered.

**Keywords:** language competencies, reading, writing, speaking and listening skills, didactics, pedagogy and psychology, individual approach, democratized education.

**Аннотация:** В данной статье показана важность иностранного языка, а именно английского, в высших учебных заведениях. В частности, широко освещены простые и эффективные способы развития языковых навыков на иностранном языке, а также важная роль языковых компетенций в освоении иностранного языка.

**Ключевые слова:** языковые компетенции, чтение, письмо, навыки говорения и аудирования, дидактика, педагогика и психология, индивидуальный подход, демократизированное образование.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining rivojlanishi koʻp jihatdan taʼlim-tarbiya tizimining samaradorligiga bogʻliqdir. Taʼlim nafaqat mavjud ijtimoiy ongning mahsuli sifatida namoyon boʻladi, balki uning mazmuni va yoʻnalishlarini belgilovchi, xalqning maʼnaviy-intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ham hisoblanadi. Shu sababli jamiyat maʼnaviyatini yuksaltirish, fuqarolarning dunyoqarashini boyitish va ijtimoiy ongni yangilash taʼlim tizimini izchil takomillashtirish bilan uzviy bogʻliqdir. Zero, inson tafakkuridagi oʻzgarishlar avvalo taʼlim mazmuni, pedagogik jarayon sifati va tarbiyaviy taʼsir mexanizmlarining takomillashuvi orqali yuzaga keladi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni koʻrsatadiki, xalqimizning ilm-fan, madaniyat va maʼnaviyat sohalarida erishgan yutuqlari avlodlar avlodga uzatilgan taʼlimiy qadriyatlar va samarali tarbiya tizimining natijasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz yaratgan ilmiy meros, bunyodkorlik anʼanalari va yuksak madaniy qadriyatlar zaminida insonni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi taʼlim tizimi mujassam boʻlgan. Bugungi kunda esa taʼlimning asosiy vazifasi talabalarda nafaqat kasbiy bilim va koʻnikmalarni shakllantirish, balki ularning shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat ehtiyojlari oʻrtasidagi uygʻunlikni taʼminlash, mustaqil hayotiy pozitsiyani qaror toptirish hamda oʻz imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishga yoʻnaltirishdan iboratdir.

Zamonaviy taʼlim siyosati taʼlim sifatini oshirishni uzluksiz monitoring qilish, oʻquv natijalarini ishonchli va xolis mezonlar asosida baholash hamda oʻquv jarayonining samaradorligini muntazam tahlil etishni talab etadi. Shu bilan birga, uzluksiz taʼlim tizimi mazmunini yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, individual taʼlim trayektoriyalarini shakllantirish va taʼlim jarayonini talaba ehtiyojlariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan oʻquv jarayonida bilimlarni oʻzlashtirish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni saralash va mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, til taʼlimida ushbu vazifalarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat sharoitida xorijiy tillarni puxta egallash shaxsning akademik, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Shu bois taʼlim jarayonida til koʻnikmalarini rivojlantirish talabaning kommunikativ faolligi, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi hamda global axborot makonida samarali faoliyat yurita olish qobiliyatlarini shakllantirish bilan chambarchas bogʻliq holda qaralmoqda.

Shaxs rivojlanishi murakkab va koʻp qirrali jarayon boʻlib, u faqat ayrim sifatlarining shakllanishi bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon intellektual salohiyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, jismoniy

barkamollik va dunyoqarashning uzviy rivojlanishini qamrab oladi. Maxsus tashkil etilgan ta'lim muhiti esa talabaning yaxlit shaxs sifatida kamol topishini ta'minlaydi. Til kompetensiyalarini rivojlantirish ham aynan shunday murakkab pedagogik va psixologik mexanizmlar asosida amalga oshadi. Hozirgi davrda xorijiy til ta'limiga oid ilmiy konsepsiyalarda talaba shaxsining individual imkoniyatlari, insonparvarlik tamoyillari va o'zini o'zi rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan ko'p komponentli yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning aksariyati talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash, uning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirish mexanizmlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxs rivojlanishining har bir bosqichida uning ehtiyojlari, qobiliyatlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda maqsadli pedagogik ta'sirni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabalarning xorijiy til bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy yondashuvlar va metodik tavsiyalarga qaramasdan, ayniqsa oliy ta'limning dastlabki bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar bilan individual ishlash asosida ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yoshlarning intellektual va shaxsiy kamolotini ta'minlash zamonaviy ta'lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu vazifani samarali amalga oshirish esa ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni, mavjud an'anaviy qarashlarni qayta ko'rib chiqishni hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Shu ma'noda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan an'anaviy o'qitish usullarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizimni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bunday tizim talabalar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar, ularning individual rivojlanish xususiyatlari va shaxsiy ehtiyojlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olishi lozim. Chunki ta'lim samaradorligi nafaqat o'quv materialining mazmuniga, balki talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi, mustaqil ta'lim faoliyati va shaxsiy taraqqiyotiga ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonida talabalar rivojlanishining ichki mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'quv faoliyatidagi o'sish dinamikasini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olish, kasbiy va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish huquqlari qonuniy asoslarda kafolatlangan bo'lib, bu holat ta'lim tizimining insonparvarlik va demokratik tamoyillar asosida rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda talabalarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda til ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki individual yondashuv ta'lim muhitining barqarorligini ta'minlash, har bir talabaning ehtiyojlariga mos pedagogik yordam ko'rsatish va ta'lim natijalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Amaliyot tahlillari ko'rsatishicha, ko'plab hollarda xorijiy tilni o'qitish jarayonida til faoliyatining ayrim jihatlariga, xususan, og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmaydi. Natijada talabalar nazariy bilimlarni egallagan bo'lsalar-da, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa til ta'limining amaliy yo'nalishini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar til kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratdi. Aslida mazkur masala ilmiy adabiyotlarda o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, bugungi kunda unga kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmalari asosida yangicha mazmun berilmoqda. Dastlab sotsiologiya va psixologiya fanlari doirasida tadqiq etilgan ushbu muammo hozirgi davrda lingvodidaktika va pedagogika fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan.

O'tkazilgan kuzatuvlar va so'rovlar natijalari ham o'qituvchilarning aksariyati talabalarning xorijiy til bo'yicha kommunikativ ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirish masalasi yuzasidan yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligini ko'rsatdi. Ba'zi pedagoglar ushbu vazifani bevosita til o'qituvchilari yoki murabbiylarning mas'uliyati sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, talabalar orasida o'tkazilgan o'rganishlar ularning o'z til imkoniyatlarini baholashga, mavjud bilimlarini amaliyotda qo'llashga va xorijiy tilda muloqot qilish qobiliyatlarini takomillashtirishga qiziqish bildirayotganliklarini namoyon etdi. Talabalarning ma'lum qismi o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglay boshlaganligi ham kuzatildi.

Mazkur holatlar talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini

tasdiqlaydi. Ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarida yuz berayotgan o’zgarishlar talabaga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni shakllantirishni talab etmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda talabaning individual imkoniyatlariga tayangan holda uning xorijiy til bo’yicha ko’nikma va malakalarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

So’nggi yillarda ta’lim tizimida insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida o’quv jarayoni ishtirokchilariga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabat pedagogik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ta’limning demokratlashuvi har bir talabaning shaxsiy qadr-qimmati, ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini e’tirof etishga asoslangan yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada talaba shaxsini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, uning intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarish hamda individual rivojlanishi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan konseptual va metodologik asoslar takomillashib bormoqda. Buning natijasida esa xorijiy tilda til ko’nikmalarini tez va samarali o’rganish metodikalari ishlab chiqarilib o’z natijalarini ko’rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni —Raqamli O’zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida 5 oktabr 2020 yil, PQ-6079.

3.Allen H., Widdowson H.G. Teaching the Communicative Use of English. – London: Longman, 1974. – P. 1–13.

4.Allwright D. Perception and Second Language Acquisition // Applied Linguistics. – 1982. – Vol. 3, № 3. – P. 261–275.

5.Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика: учеб. пособие. – 6-е изд., стер. – М.: Академия, 2009. – 333 с.

6.Yulduz E. Nofilologik yo’nalishdagi talabalarga lingvokulturologiyaga oid tushunchalarni o’rgatishda innovatsion yondashuv // Qurilish va ta’lim. – 2023. – Vol. 4, № 4(1). – P. 815–823.